



O'ZBEKISTONDA AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASI

Xusinov Ibragim Ismailovich

i.f.n., dotsent

PhD, Imamova Nasiba Muzafarovna

"INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE"

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz aholisining turmush darajasini bugungi kundagi holati va uni yanada yaxshilash yuzasidan xulosa hamda takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: aholi jon boshiga real daromadlar, investitsiyalar, kam ta'minlangan aholi, xarid qobiliyati, aholini turmush darajasi.

ДОХОДЫ НАСЕЛЕНИЯ И УРОВЕНЬ ЖИЗНИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Хусинов Ибрагим Исмаилович

к.э.н., доцент

Имамова Насиба Музафаровна

PhD, "INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE"

Аннотация. В статье сформулированы выводы и предложения по текущему состоянию и дальнейшему улучшению уровня жизни населения нашей страны.

Ключевые слова: реальные доходы на душу население, инвестиции, мало обеспеченные население, платежеспособности население, уровни жизни население.

INCOME OF THE POPULATION AND STANDARDS OF LIVING IN UZBEKISTAN

Khusinov Ibragim Ismailovich

Ph.D., associate professor

Imamova Nasiba Muzafarovna

PhD, "INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE"

Annotation. The article draws conclusions and proposals on the current state of life of the population of the country and its further improvement.

Keywords: realpercapitaincome, investments, poor population, purchasing power, living standard of living.

Kirish.

Har bir mamlakat qanday siyosiy va ijtimoiy harakatlarni amaliyotga joriy etishidan qat'i nazar ularning yakuniy maqsadi xalq manfaatlari, aholi turmush darajasini yaxshilash, etakchi mamlakatlar safidan joy olishga qaratilgandir.

"Turmush darajasi" tushunchasi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini rivojlantirishda Birlashgan millatlar tashkiloti sezilarli hissa qo'shdi. 1960 yilda BMTning ishchi guruhi global miqyosda turmush darajasini aniqlash va o'lchash tamoyillari haqida hisobot tayyorladi. Bu keng qamrovli tizimni yaratish yo'lidagi dastlabki qadam edi. BMTning xalqaro statistika sohasidagi turmush darajasi ko'rsatkichlarining oxirgi versiyasi 1978 yilda ishlab chiqilgan va 12 ta asosiy yo'nalishni qamrab olgan.

BMTning tavsiyasiga ko'ra, tug'ilish, o'lim, umr ko'rish davomiyligi, sanitar-gigienik sharoitlarning mavjudligi, oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol darajasi, uy-joy, ta'lim olish va madaniy imkoniyatlar, ish sharoitlari va bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlar muvozanati, iste'mol narxlari, transport vositalari bilan ta'minlanganligi, dam olish va hordiq chiqarish, ijtimoiy ta'minot, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanganligi kabi yo'nalishlar turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga kiradi.

Bugungi kunda ham mazkur xalqaro tashkilot tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag'allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko'maklashish maqsadida qator ishlar amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, BMTning Bosh assambleyasida 2000-yilda qabul qilingan "Ming yillik rivojlanish dasturi" hamda 2015-yilda tasdiqlangan "2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi" bevosita dunyo mamlakatlari aholisini iqtisodiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda, aholining salomatligini asrashga qaratilgan muhim tadbirlar ishlab chiqilgan.

Ma'lumki, aholi turmush darajasini barchamiz aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar va iste'mol hajmi miqdorining ortishi yoki kamayishi bilan baholashga odatlanganmiz. Aslida u ancha kengroq tushuncha hisoblanadi. Lekin hozircha bu boradagi konsepsiyalarni aholining turmush darajasi sifatini har tomonlama xarakterlab beradigan yagona ko'rsatkichga keltirish bo'yicha samarali usul mavjud emas. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholi turmush darajasining yaxshilanishi, bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, albatta hukumat tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar hamda amaliy harakatlar natijasiga bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Prezident tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida ettita yo'nalish keltirilgan bo'lib ushbu yo'nalishlarning barchasi aholini yaxshi turmush kechirishiga erishishni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib bevosita to'rtinchi yo'nalish adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish deb nomlangan yo'nalishda bevosita shu maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan 55 ta aniq chora tadbirlar rejasi keltirilgan (Farmon, 2022).

Shuni alohida ta'kidlash joizki tadqiqotimiz obyekti hisoblangan - aholi turmush darajasi, aholi daromadlari, sog'liqni saqlash, savodxonlik darajasi, madaniy hayoti, bo'sh vaqtning mavjudligi, atrof muhit kabi bir qator faktorlarga bog'liq bo'lishi bilan birga, aholi turmush darajasi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida samaradorlikni baholashning eng muhim mezonini hisoblanib, uni oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. Mustaqillik yillarida ushbu yo'nalish bo'yicha mamlakatimizda bir qancha ijobiy ishlar qilindi, misol uchun 2006-yil "Qariyalarni qadrlash yili", 2007-yil "Aholini ijtimoiy ximoya qilish yili", 2008-yil "Yoshlar yili", 2017-yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili", 2019-yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlantirish yili", 2020-yil "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", 2021-yil "Yoshlarni qo'llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili", 2022-yil "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb e'lon qilinishi va shu nomlarga mos islohotlarning amalga oshirilishi buning yaqqol isbotidir. Iqtisodiy adabiyotlarda aholi turmush darajasi insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish darajasi sifatida talqin etiladi. Salin, Shpakovskayalar (2001) "Aholi turmush darajasi bu inson faoliyatining, eng avvalo, real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yig'indisini ifodalovchi murakkab va ko'p qirrali kategoriya bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotning muhim tavsifi hisoblanadi", - deb ko'rsatadi. Aholi turmush darajasiga moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish darajasi sifatida qarashlar bor (Dagbaeva, 2008). Abdurahmonov, Xolmo'minovning (2004) tadqiqotlarida aholi turmush darajasiga ta'rif berilib, uni oshirishga doir nazariy ma'lumotlar berilgan, jumladan, aholi turmush darajasi deganda ularning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda insonlar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilish darajasi tushuniladi. Biz maqolada ushbu ta'rif asosida statistik tahlillar qilib, tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqamiz. O'lmasovning (1997) "Iqtisodiyot asoslari" kitobida aholi turmush darajasi va farovonligining bir nechta ta'riflari nazariy jihatdan keltirilib, u muntazam o'zgarib turadigan, turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanishi ko'rsatib o'tilgan. Bunda aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish yuzasidan taklif, tavsiyalar keltirilgan. Xusainov, Sayitkulova (2018) Mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish masalalari, jumladan, 2017-yilda o'zbekistonliklarni narxlar, kommunal xizmatlar va ijara haqi, kreditlar, soliqlarni to'lashdagi qarzar tufayli kelib chiqqan muammolar tashvishga soldi. Gaz, ichimlik suvi bilan ta'minlash masalalari, maktabgacha ta'lim muassasalarining etishmasligi, yuqori bo'lmagan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar ham fuqarolarning ayrim toifalari uchun tashvish va bezovtalik manbalari tahlil qilinib, ushbu tizimni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab


chiqilgan. Bozor munosabatlariga asoslangan O'zbekiston iqtisodiyotida xodimlarning ish haqi masalalari to'g'risida mualliflarning ilmiy qarashlari bayon etilgan. O'zbekiston statistika qo'mitasi tomonidan berib boriladigan axborotlar asosida mamlakatimiz aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish masalalari yuzasidan ilmiy, nazariy tadqiqotlar o'tkazilib, xulosalar qilingan (G'oyibnazarov, 2006).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotimiz mavzusi mamlakatimiz aholisi turmush darajasi va farovonligini oshirish masalalariga bag'ishlanganligi sababali, avvalo, mavzu doirasidagi mamlakatimiz Prezidentining qaror va farmonlar, hukumatimiz qarorlari bilan belgilangan vazifalarga hamda mavzu doirasida tadqiqot olib borgan iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari o'rganilib, mavzuni o'rganilganlik darajasi tadqiq etilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida statistik tadqiqot, adabiyotlar qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullaridan foydalanilgan. Aholi turmush darajasi deganda ularning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda insonlar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilish darajasi tushuniladi. Insonlar hayot faoliyati uchun zarur ne'matlar juda ko'p ehtiyojlarni o'z ichiga oladi. Bularga misol qilib mehnat sharoiti, ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash, oziq-ovqat va uy-joy sifati kabi ko'plab ehtiyojlarni aytish mumkin. O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy hamda ijtimoiy ehtiyojlari ko'rsatkichlarini ifodalaydigan "turmush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Turmush darajasiga to'liq ta'rif beradigan bo'lsak, bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Ma'lumki, aholi turmush darajasini barchamiz aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar va iste'mol hajmi miqdorining ortishi yoki kamayishi bilan baholashga odatlanganmiz. Aslida esa bu ancha kengiroq tushunchadir. BMTning tavsiyasiga ko'ra, tug'ilish, o'lim, umr ko'rish davomiyligi, sanitar-gigienik sharoitlarning mavjudligi, oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol darajasi, uy-joy, ta'lim olish va madaniy imkoniyatlar, ish sharoitlari va bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlar muvozanati, iste'mol narxlari, transport vositalari bilan ta'minlanganligi, dam olish va hordiq chiqarish, ijtimoiy ta'minot, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanganligi kabi yo'nalishlar turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga kiradi. Ushbu ko'rsatkichlar ichida, eng asosiysi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar hajmi bo'lib, mazkur ko'rsatkich mamlakat aholisi turmush darajasini baholash bilan birga, xalqaro taqqoslamalarda ham foydalanish imkonini beradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholi turmush darajasining yaxshilanishi, bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, albatta hukumat tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar hamda amaliy harakatlar natijasiga bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda ham mazkur xalqaro tashkilot tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag'allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko'maklashish maqsadida qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, BMTning Bosh assambleyasida 2000-yilda qabul qilingan "Ming yillik rivojlanish dasturi" hamda 2015-yilda tasdiqlangan "2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi" bevosita dunyo mamlakatlari aholisini iqtisodiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda, aholining salomatligini asrashga qaratilgan muhim tadbirlar sirasiga kiradi. O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy hamda ijtimoiy ehtiyojlari ko'rsatkichlarini ifodalaydigan "turmush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Unga to'liq ilmiy ta'rif beradigan bo'lsak, bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Ma'lumki, aholi turmush darajasini barchamiz aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar va iste'mol hajmi miqdorining ortishi yoki kamayishi bilan baholashga odatlanganmiz. Aslida u ancha kengroq tushuncha hisoblanadi. Lekin hozircha bu boradagi konsepsiyalarni aholining turmush darajasi sifatini har tomonlama xarakterlab beradigan yagona ko'rsatkichga keltirish bo'yicha samarali usul mavjud emas. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholi turmush darajasining yaxshilanishi, bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, albatta hukumat tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar hamda amaliy harakatlar natijasiga bog'liq bo'ladi. Aholi umumiy daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan kelgan tushumlar ulushi 71,5 foizni, shundan 69,3 foizi mehnat faoliyatidan olingan, 2,1 foizi shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlarni tashkil etgan.



Daromad – bu rezidentlar ixtiyoriga tushgan pul tushumlaridir. Mohiyati jihatidan daromad rezidentlarning yalpi ichki mahsulot (YaIM) dagi hissasi bo'lib, pul shaklida ifoda etiladi.



Ish haqini hisoblash

Ish haqi – bu mehnat bilan band bo'lgan aholining asosiy daromadidir. Rivojlangan mamlakatda jami daromadlarning 70 – 80 foizini ish haqi tashkil etadi. Ish haqi tirikchilik vositalarini xarid qilish va pul jamg'armasini hosil etish uchun ishlatiladi. U quyidagicha hisoblanadi:

$$IH = AIH + B + PT$$

Bu yerda:

AIH – asosiy ish haqi (ya'ni, ish kuchi egasining o'z mehnati natijasi uchun oladigan haqi);

B – bonus (mukofot ko'rinishidagi ish haqi, imtiyozli yoki foizsiz ssuda berish, turli tekin xizmatlar ko'rsatish va h.k.);

PT – pul to'lovlari (belgilangan ish vaqtdan ortiqcha ishlaganlik uchun beriladigan haq);

Ishlovchining qo'lga tegishiga qarab ish haqi ikki turga:

- umumiy (brutto);

- sof (netto) ish haqiga bo'linadi.

-

Brutto ish haqi – bu yalpi, ya'ni ishlovchi hisobiga yozilgan ish haqidir.

Netto ish haqi esa yalpi ish haqidan turli to'lovlar chegirib tashlangandan so'ng qoladigan ish haqidir. U quyidagicha hisoblanadi:

$$SIH = YaIH - (DS + IST + JAM)$$

Bu yerda: YaIH – yalpi ish haqi; SIH – sof ish haqi; DS – daromad solig'i; IST – ijtimoiy sug'urta solig'i; JAM – jamg'armaga ajratilgan mablag'.

Ish yurishib ketsa, yaxshi foyda ko'riladi, agar ish o'ngidan kelmasa, foyda o'rniga zarar ko'rishi mumkin. Tabiatan foyda kafolatlanmagan daromad bo'lib, u tez - tez o'zgarib turadi. Aholi daromadlari tarkibida foydaning hissasi katta bo'lmaydi. Chunki tadbirkorlik bilan g'oyat ozchilik shug'ullanadi. Masalan, AQShda foydaning aholi daromadlaridagi hissasi taxminan 15 - 18 foizni tashkil etadi.

Foyda quyidagicha aniqlanadi:

$$F = \text{YaQQ} - (\text{IH} + \text{IChS} + \text{IUT})$$

Bu yerda: YaQQ – yalpi qo'shilgan qiymat; IH – ish haqi; IChS – ishlab chiqarishga soliq; IUT – import uchun to'lovlar.

Dividend – bu foydaning aksiyadorlarga ulush sifatida tegadigan qismi. Dividend aksiya chiqargan korxonaning rentabel ishlashiga bog'liq. Shu sababdan turli firmalarning aksiyasiga har xil dividend beriladi. Aksiyalar oddiy va imtiyozli bo'lishi mumkin. Oddiy aksiyaga tegadigan dividend kafolatlanmaydi. Korxonalar (firma) foyda ko'rsa dividend beriladi, zarar ko'rsa dividend to'lanmaydi.

Aholining turmush darajasi sotsial iqtisodiy tushuncha bo'lib, u kishilarning moddiy va ma'naviy - ma'rifiy ehtiyojining qondirilishi hamda turmush sharoitining yaxshilanish darajasini tavsiflaydi. Moddiy ehtiyojlarga kishining oziq - ovqat, kiyim - kechak, turar - joy, yoqilg'i, maishiy va kommunal xizmat ko'rsatishni yaxshilash kabilarga bo'lgan ehtiyojlari kiradi. Ma'naviy - ma'rifiy ehtiyojlarga kishilarning bilimi, malakasi va ma'naviy - ma'rifiy saviyasini oshirish, intellektual salohiyatini yuksaltirish kabilarga bo'lgan ehtiyojlari kiradi.

Aholining sotsial turmush sharoiti – bu jamiyatning hamma a'zolariga mehnat qilish, dam olish, har tamonlama jismoniy va madaniy taraqqiyotni ta'minlash hamda mehnat qilish qobiliyatini saqlashni kafolatlash, vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotganlarni sotsial ta'minot, pensiya va nafaqalar bilan ta'minlash, nisbatan kam daromadli oilalarning bolalariga nafaqalar berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Mazkur "turmush darajasi" tushunchasidan, biz bu kategoriyaning naqadar murakkab va ko'p qirrali mazmuniga ega ekanligiga ishonch hosil qildik. Demak, u qandaydir bitta ko'rsatkich bilan emas, aholi daromadi va turmushning turli qirralarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanishi lozim. Bu tizim quyidagi asosiy bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- umumlashtiruvchi sintetik ko'rsatkichlar;
- aholining moddiy ehtiyojlarini qondirish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- aholining ma'rifiy - ma'naviy darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.
- aholining sotsial sharoitini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Bu ko'rsatkichlar natural va qiymat ko'rinishida ifodalanib, aholi turmush darajasini miqdor va sifat tomonlarini o'zida aks ettiradi.

"Rasmiy statistika to'g'risida" Qonunning 14-moddasiga ko'ra, Davlat statistika qo'mitasi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlar hamda ularning natijalari to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil etish, e'lon qilish vazifalarini bajaradi. Shuningdek, unda qo'mitaning aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlar yig'ishda yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda statistik hisobot shakllari yoki turli kuzatuvlar orqali ma'lumotlarni olish huquqiga egaligi belgilab qo'yilgan.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha "Xarakatlar strategiyasi"da ham asosiy e'tibor ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'lgan aholining bandligi va haqiqiy daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish: aholining haqiqiy pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalarni va aholining daromadlari bo'yicha farqlanishi darajasini yanada qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish hamda sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish masalalari belgilab berilgandi. Bundan tashqari aholi turmush sharoitini yanada yaxshilash ya'ni aholini uyga bo'lgan talabini qondirishda asosiy e'tiborni arzon uy-joylar qurish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilishga qaratilgan chora tadbirlar belgilab berilgandi (Farmon, 2022).

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Aholi umumiy daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan kelgan tushumlar ulushi 71,5 foizni, shundan 69,3 foizi mehnat faoliyatidan olingan, 2,1 foizi shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlarni tashkil etgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va kam ta'minlanganlar aholi⁴⁰.

1-jadval**Aholining jon boshiga to'g'ri keladigan haqiqiy daromadlar**

Ko'rsatkichlar	2000-yil	2005-yil	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2022-yil	2022-yilda 2000-yilga nisbatan %
Aholi jon boshiga haqiqiy daromadlar (ming so'm)	77,2	349,6	2038,7	5127,5	10873,2	15979,3	20752 %
Aholi jon boshiga asosiy kapital yo'naltirilgan investitsiyalar (ming so'm)	30,2	121,0	583,2	1431,7	6140,3	7468,6	24728 %
Kam ta'minlangan aholi salmog'i %	27,5	25,8	17,7	12,8	11,5	14,1	51,2

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki aholining jon boshiga to'g'ri keladigan haqiqiy daromadlari yildan yilga o'sib borgan. Jumladan ushbu ko'rsatkich 2000-yilda 77,2 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2022-yilda 15979,3 ming so'mni tashkil qilgan bo'lib 22 yil davomida 207,5 marotaba o'sgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad barcha davrlarda o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bizga ma'lumki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarni o'sishiga ishlab chikarish sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar miqdori o'zining ta'sirini bevosita ko'rsatadi. Bu o'zgarishlarni ko'yidagi jadvaldagi ma'lumotlardan ham ko'rishimiz mumkin ya'ni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar miqdori yildan yilga o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib 2000-2022-yillar oralig'ida 30,2 ming so'mdan 7468,6 ming so'mga o'sgan bo'lib 22 yil ichida 247,3 martaba o'sishga erishilgan. Ushbu ko'rsatkichning o'sishi natijasida aholining jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar o'sishida o'z aksini topgan. Aholi real daromadlarining o'sishi bizga ma'lumki aholining turmush darajasini yaxshilanishiga bu esa o'z navbatida kam ta'minlangan aholi soni va salmog'ini kamayishiga olib kelganida ko'rish mumkin. Kam ta'minlangan aholi salmog'i 2000-yildagi 27,5% tashkil qilgan bo'lsa aholi jon boshiga real daromadlarni oshishi natijasida 2020-yilga kelib 11,5% ni tashkil qilgan. 2021-yildan boshlab kam ta'minlangan aholi ko'rsatkichi o'rniga kambag'allik ko'rsatkichini xisoblash boshlandi va shu yili bu ko'rsatkich 17,0 % ga teng bo'lgan bo'lsa 2022-yilga kelib bir muncha kiskarib 14,1 %ni ya'ni deyarli 3%ga pasaygan. Bularning barchasi davlatimiz tamonidan kambag'allikni kiskartirish uchun olib borilayotgan ishlarning samarasi sifatida qarashimiz mumkin bo'ladi. Aholi turmush darajasi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar bilan bir qatorda ta'lim darajasi, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish, oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli kabi ko'rsatkichlar bilan ham o'lchanadi. Albatta bu borada 2016-yildan keyin bir muncha ijobiy siljishlarga erishildi.

Ta'lim darajasi indeksi – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturining (BMTTD) umumiy ko'rsatkichi bo'lib, u kattalar savodxonligi indeksi va ta'lim olayotgan talabalarning jami salmog'i indeksi sifatida hisoblanadi. Indeks mamlakat aholisining ta'lim darajasi bo'yicha erishgan yutuqlarini ikkita asosiy ko'rsatkich bilan baholaydi:

Kattalar savodxonligi indeksi (2/3 vazn).

Boshlang'ich, o'rta va oliy ta'limdagi talabalarning kumulyativ ulushi indeksi (1/3 vazn).

Ta'lim yutuqlarining bu ikki o'lchovi yakuniy indeksda umumlashtiriladi va 0 (minimal) dan 1 (maksimal) gacha bo'lgan raqamli qiymatlar sifatida standartlashtiriladi. Dunyo aholisining savodxonligi haqidagi ma'lumotlar milliy ro'yxatga olishning rasmiy natijalaridan kelib chiqadi va YUNESKO statistika instituti hisob - kitoblari bilan taqqoslanadi. Indeks har ikki yilda yangilanadi, biroq BMT ma'lumotlari bilan hisobotlar odatda bir yilga kechiktiriladi, chunki ular milliy statistika idoralari tomonidan e'lon qilinganidan keyin xalqaro taqqoslashni talab qiladi.

2020-yilda nashir qilingan ta'lim darajasi indeksi bo'yicha jahondagi eng yaxshi mamlakat Germaniya davlati hisoblanadi. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarni Norvegiya va Buyuk Britaniya egallagan.

⁴⁰ <https://stat.uz> > Davlat Statistika ko'mitasi

MDHga kiruvchi mamlakatlar orasida eng yaxshi natijani jahonda 26 – o‘rinni egallagan Gruziya davlatiga tegishlidir. MDH ga kiruvchi qolgan mamlakatlar ketma-ketligi esa quyidagicha: Belarus (32), Qozog‘iston (35), Rossiya (39), Ukraina (47), Armaniston (64), Qirg‘iziston (70), O‘zbekiston (71), Ozarbayjon (80), Moldova (82) Tojikiston (96), Turkmaniston (111). (Education Index, 2021) Bundan ko‘rinadiki ushbu sohada hali amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan ishlar talaygina. Albatta bu sohada oxirgi yillarda bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan YUNESKO va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik bo‘yicha memorandumda Oliy ta‘lim kvalifikatsiyalarini tan olish bo‘yicha Tokio konvensiyasini O‘zbekistonda joriy qilish 2018-2021-yillarda amalga oshirilishi kerakligi belgilangan va bu ishlar bugungi kunda to‘liq amalga oshirilgandir.

Ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilish yurtdoshlarimiz uchun xorijiy davlatlarda ta‘lim olish, ishlash va bu borada o‘qigan davlatida olingan malakani va hujjatini boshqa bir davlatda tan olinishini, xususan, ta‘lim olishni keyingi bosqichda davom ettirish ya‘ni akademik tan olish hamda kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun tan olish imkonini beradi.

“O‘zbek yoshlarining oliy ta‘lim bilan qamrov darajasi **3 barobarga** (2016-yilda 9 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda 28 foiz) oshdi. Ta‘lim xizmatlari bozorida xorijiy va nodavlat ta‘lim xizmatlari vakillarining ishtiroki kengaydi. Oliy ta‘lim muassasalari soni **2,2 marotaba** (2016-yilda 64 ta – 2021 yilda 141 ta), nodavlat OTMLar soni **7,2 marotaba** (2016-yilda 4 ta – 2021 yilda 29 ta) oshdi.

Xalqaro tajriba asosida xorijiy ta‘limni **tan olish jarayonlari soddalashtirildi**. Nostrifikatsiya amaliyotidan voz kechilib, “**tan olish**” amaliyoti joriy etildi.

Prezident Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida:

- O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish;

-O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta‘lim muassasalarining flagmaniga aylantirish;

-Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta‘lim muassasasini xalqaro e‘tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan, O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish;

-oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish; rejalari belgilab berildi

2-jadval

Aholining uzoq muddat foydalanadigan buyumlar bilan ta‘minlanganlik darajasi⁴¹

Aholining uzoq muddat foydalanadigan buyumlar bilan ta‘minlanganligi (100 ta uy xo‘jaligida) (uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma‘lumotlariga asosan) dona					
Buyum nomlari	2010-yil	2015-yil	2019-yil	2020-yil	2022-yil
Televizorlar	132	152	160	162	171
Sovutkich va muzlatkichlar	99	101	106	107	115
Konditsionerlar	19	32	39	40	45
Elektr chang yutkichlar	37	53	58	60	69
SHaxsiy kompyuterlar	12	47	55	60	64
Kir yuvish mashinalari	75	79	89	90	95
Mobil telefonlar	145	234	282	287	304
Engil avtomobillar	21	42	47	49	55

Ushbu oliy ta‘limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan rejalarni amalga oshirilishi ta‘limda raqobatni rivojlanishiga va bu orqali ta‘lim sifatini yanada oshishiga olib kelishi

⁴¹ <https://stat.uz> Davlat Statistika ko‘mitasi

ta'lim darajasi indeksining yaxshilanishiga olib kelgan holda bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekistonni jahonda o'ziga munosib o'rinni egallashi erishiladi deb hisoblaymiz.

Aholi turmush darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan yana biri uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar bilan ta'minlanganligi, uy-joy sharoitlari ta'minlanganligi darajasida ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Oxirgi yillarda uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar soni ham 100 ta uy xo'jaligiga nisbatan o'sib bordi buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin.

Inson tabiati shundayki agarda daromadlari oshib borsa oziq - ovqat va kiyim - kechakdan ortirgan mabalag'lari evaziga ko'p yillar davomida ishlatishi mumkin bo'lgan uzoq muddat foydalanishi mumkin bo'lgan buyumlarni sotib olishga intiladi. O'zbekistonda oxirgi 10 yilda 100 ta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan televizorlar 1,23 barobarga, shaxsiy kompyuterlar 12 dan 60 gacha ya'ni 5 barobarga, engil avtomobillar 2,3 marotabaga oshgan bo'lib boshqa uzoq muddatli ishlatiladigan buyumlar bo'yicha ham o'sishga erishilgan. Bularning barchasi ham aholini turmush sharoiti yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimiz aholisining turmush darajasini yanada oshirish uchun quyidagi ishlar qilishimiz zarur deb hisoblaymiz.

Birinchidan aholiga yuqori daromad keltiruvchi ish o'rinlarini yaratish ya'ni yaratilayotgan mahsulotga ko'proq qo'shilgan qiymat qo'shadigan tarmoq korxonalarini soni va salmog'ini oshirishga erishish.

Ikkinchidan o'zini o'zi ish bilan ta'minlaydiganlarga sharoit yaratib berish orqali ular sonini oshirishga va bu orqali esa yashirin iqtisodiyotda faoliyat olib boruvchilar soni hamda salmog'ini kamaytirish erishish.

O'zbekiston Respublikasi aholining katta qismini kam daromad olishini inobatga oladigan bo'lsak, yashash qiymati masalasi joriy vaziyatda muhim ahamiyat kasb etadi hamda past darajada daromad olayotgan aholi farovonligini oshirish uchun echim bo'ladigan samarali chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Aholini turmush darajasini yanada oshirish uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar:

bozorlarni yashash uchun muhim bo'lgan iste'mol tovarlari bilan ta'minlash hamda tovarlar taklifini rag'batlantirish va etkazib berish zanjirini tashkil etish orqali ular narxining keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik;

ishga layoqatsiz shaxslar, shu jumladan, yolg'iz ona va nogironligi bo'lgan shaxslarga moliyaviy yordam ko'rsatish hamda muhim iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash hamda ularga o'zlariga to'g'ri keladigan ish sharoitlarini yaratib berish;

qishloq joylarda agrar sohani isloh qilish orqali er va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini tubdan yaxshilash.

aholini maqbul uy-joy va jamoat transporti xizmatlari bilan ta'minlash, aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish;

zamonaviy ta'limni moliyalashtirishni kengaytirish va zamonaviy axborot texnologiyalari, injenerlik, biotibbiyot hamda boshqa shu kabi yuqori daromad olish imkonini beradigan zamonaviy mutaxassisliklarga yo'naltirish;

kam ta'minlangan oilalar uchun maktab-gimnaziyalar sonini ko'paytirish va bolalarni sifatli ta'lim olishini ta'minlash.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

- Abdurahmonov Q.H, Xolmo'minov Sh.R. (2004) "Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi". Toshkent.
- Dagbaeva S.D. (2008) Uroven jizni naseleniya: puti resheniya problemy bednosti. Ulan-Ude., s.35.
- Education Index (2021) United Nationis Development Programme:
- Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
- G'oyibnazarov B.K. (2006) Aholi turmush darajasini statistik baholash. -T.: Fan., -125 b.
- O'lmasov A. (1997) "Iqtisodiyot asoslari". -T.: Mehnat.
- Salin V.N., Shpakovskaya E.P. (2001) Sotsialno-ekonomicheskaya statistika. M., s. 399.
- Xusainov G'L., Sayitkulova P.I. (2018) "Mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish masalalari". Iqtisodiyot va ta'lim. №1., 93-96 betlar.